

20-Yanvar, 2026-yil

BRONZA DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA SHAHARLARNING VUJUDGA KELISHI

Raximova Shaxrizoda Shavkatovna

Osiyo Xalqaro Universiteti MM101-T-25 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezis O‘zbekistonning qadimgi tarixini tadqiq etish jarayonida shaharlar shakllanishi, sivilizatsiya va davlatchilikning rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Shaharlar tarixiy davrlarda ma‘muriy, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markaz sifatida faoliyat ko‘rsatganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bronza davrida metall qurollar, kulolchilik, zargarlik va tukimachilikning shakllanishi, shuningdek, sun‘iy sug‘orish inshootlarining keng qo‘llanilishi qadimiy iqtisodiy va ijtimoiy tizimni yoritadi.

Kalit so‘zlar: Bronza, madaniyat, davr, moddiy madaniyat, taraqqiy etgan xo‘jalik, turar-joy me‘morchiligi, sivilizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, madaniy markazlar, Hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik, chorvachilik, metall qurollar, kulolchilik, zargarlik, sun‘iy sug‘orish

Аннотация: Данный тезис рассматривает формирование городов, стадии развития цивилизации и государственности в изучении древней истории Узбекистана. Подчеркивается, что города исторически выполняли функции административных, военно-политических, социально-экономических и культурных центров. Появление металлического оружия, гончарного и ювелирного дела, а также текстильных ремесел в бронзовом веке, а также широкое применение систем искусственного орошения отражает древние экономические и социальные структуры.

Ключевые слова: Культура бронзы, эпоха, материальная культура, развитое хозяйство, жилищная архитектура, цивилизация, социально-экономическая система, культурные центры, ремесленничество, торговля, земледелие, скотоводство, металлическое оружие, гончарное дело, ювелирное искусство, искусственное

This thesis examines the formation of cities, the development stages of civilization, and statehood in the study of ancient history of Uzbekistan. It highlights that cities historically functioned as administrative, military-political, socio-economic, and cultural centers. The emergence of metal weapons, pottery, jewelry, and textile crafts during the Bronze Age, as well as the widespread use of artificial irrigation systems, reflects the ancient economic and social structures.

Abstract: Bronze culture, era, material culture, developed economy, residential architecture, civilization, socio-economic system, cultural centers, handicrafts, trade, agriculture, animal husbandry, metal weapons, pottery, jewelry, artificial irrigation

KIRISH

O'zbekistonning qadimgi tarixini tadqiq etishdagi murakkab muammolardan biri – O'zbekiston sivilizatsiyasi va davlatchilikning paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlashdir. Bu jarayonda shaharlar shakllanishini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki sivilizatsiya va davlatchilik urbanistik xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi qonuniyatga ega.

Har bir tarixiy davrda shaharlar davlat salohiyatining ma'muriy, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida mavjud bo'lgan. Shaharlar hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdo-sotiq, boshqaruv tartibi, harbiy garnizonlar, shuningdek, davrida etakchi bo'lgan dinlarga xos ibodatxonalar markazlashgan va faoliyat ko'rsatgan. Shu sababli, o'lkamiz tarixi va madaniyatini yorituvchi turli davrlarga oid tarixiy va tarixiy-geografik manbalardan shaharlar tarixini kuzatish mumkin.

O'zbekistonda, bronza davrining boshlanishi bilan qimmatbaho toshlar va metallardan zargar buyumlar ishlab chiqarish hunarmandchiligi kengayadi.

Bronza davrida Zafarshon vodiysi keng o'zlashtirilgan. Ushbu jarayon ayniqsa tog', dasht va cho'l hududlarida Zafarshon havzasida yashovchi chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda (Tukayli, Jom, Galasherik, Muminobod, Chakka, Soyigus, Siyab va boshqalar) seziladi. Bu holat qabristonlar va yodgorliklardan topilgan moddiy manbalar bilan ham tasdiqlanadi.

Masalan, Zamanbaba ayol qabristonlarida doimiy ravishda sariq yoki qizil ohra, antimon (surma), ohak va kichik spatulalar uchraydi. Bir ayol qabristonidan terrakota xudosi topilgan. Ba'zi qabristonlarda kuydirilgan yog'och ko'mirlariga duch kelinadi. Ayol qabirlarida rang-barang qimmatbaho toshlardan iborat marjonlar, tosh urg'ochalar, tosh asboblar, ko'mirga aylangan o'simlik urug'lari, mis oynalar, yarim oy shaklidagi mis pichoq va hayvon suyaklari saqlangan.⁴⁵

Arxeologik materiallar bu jarayonni ilk bosqichlarini o'rganish, tushunish va anglash uchun muhim bo'lib, shahar tizimining asosiy jihatlari – boshqaruv hokimiyatining belgisi bo'lgan harbiy-mudofaa va ma'muriy, rivojlanayotgan ijtimoiy-iyerarxik xususiyatlar, hunarmandchilik-ishlab chiqarish belgilar, savdo-sotiq va madaniyat almashuvining markazlari, diniy e'tiqodlar markazlarining belgilarini o'zida aks ettiradi. Shu sababli qadimgi shahar xarobalarida bu jarayonni o'rganish uchun haqiqiy tarixning izlari va qoldiqlari saqlanganligi shubhasiz.

Ayni vaqtda arxeologik materiallar o'ziga xos va murakkabdir. Yozma manbalardan farqli ravishda, ular avlodlarga ma'lumot yetkazish yoki saqlash maqsadida maxsus buyum sifatida bezatilmay, qadimgi tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Tarixiy ma'lumot arxeologik materiallarda ashyoviy buyumlar, narsalar yoki mako'lar shaklida muhrlangan bo'lib, ular ijtimoiy va siyosiy tarix uchun to'g'ridan-to'g'ri fakt bo'la olmaydi. Shuning uchun ularni tarixiy, ijtimoiy va madaniy umumlashtirish darajasiga ko'tarish faqat arxeologik materiallarni tahliliy uslub orqali tarixga yo'naltirish yoki tarixiy manbaga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Arxeologik kompleks: Muminobod qabristoni Topilmalar: bilakuzuklar, keramika, bronza sirg'alar, marjonlar, oynalar.

⁴⁵ (Исаков, Потёмкина, 1989, с. 145-167).

Madaniy mansublik: kompleks Andronov madaniyati — Tozabog‘ebning nusxasi hisoblanadi.

Tozabog‘eb madaniyati mavjud bo‘lgan davr: S.P. Tolstov va M.A. Itina ma’lumotlariga ko‘ra — mil. avv. XIII–X asrlar⁴⁶

Qadimgi ishlab chiqarish jarayonlarini tarixan qayta tiklash tadqiqotning muhim qismi bo‘lib, ularni umumlashtirish shahar va davlat iqtisodiy tarixini tarixiy nuqtai nazardan ochib berish imkonini yaratadi. Ijtimoiy-hayotga oid o‘zgarishlar shahar hayotida yangi shakllanishlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli har bir guruh shahar o‘ziga xos tuzilish shakliga ega bo‘ladi.

Shaharlar sifat jihatidan boshqa aholining punktlaridan faqat shahar uchun xos bo‘lgan jihatlar bilan farqlanadi. Bu jihatlarni aniqlash qadimshunos-urbanologlarning hozirgi paytdagi tadqiqotlaridan hisoblanadi. Turli bosqichlarda shaharlarning uzoq vaqt davomida rivojlanishi, tarkibiy qismlarining rivojlanishi, shahar funksiyalarining shakllanishi va turli geografik zonalaridagi aholi joylashuvi bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlash juda muhimdir.

Chunki ba’zi guruh shaharlar ma’muriy markaz sifatida rivojlansa, ba’zi shaharlar harbiy-mudofaa va ishlab chiqarish vazifalariga ustunlik beradi. Shu sababli dastlabki shaharlarning tarkibiy qismlarini tadqiq etish arxeologik materiallarni ko‘p qirrali o‘rganish nuqtai nazaridan muhimdir. Arxeologiyadagi tarkibiylik faqat moddiy madaniyat obyektlarini o‘rganish bilan cheklanmay, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, fan, madaniyat, etnogenez va demografik jarayonlar, hunarmandchilik va shahar madaniyatining rivojlanishi tarixini ham o‘z ichiga oladi.

Arxeologik manbalarni o‘rganish uchun maxsus ilmiy konferensiyalar va tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jamiyat faoliyatining muhim yo‘nalishlari markazlashgan shahar masalasi alohida o‘rin egallaydi. Arxeologlar manbalar orqali shaharni ko‘p funksiyali ijtimoiy institutlarning murakkab tartibi sifatida tadqiq etadilar.

Shaharlarning rivojlanishi jarayonida ularning funksiyalari o‘zgaradi, ba’zilari kamayadi, ba’zilari esa mukammallashib, yuqori bosqichga ko‘tariladi. Ammo asosiy vazifalar — aholi zich joylashuvi, savdo-sotiq va qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan faoliyat (hunarmandchilik, harbiy, ma’muriy va madaniy markaz) barcha davrlarda saqlanib qoladi. Bularning barchasiga aniqlik kiritish arxeologik manbalarni tahlil qilish, qayta ishlash va tarixiylikka yo‘naltirishni talab etadi.

Ma’lumotlar tahliliga nazariy yondashuv va arxeologik materiallarni qayta ishlab madaniyatshunoslik va sotsiologik darajada tarixiy manbaga aylantirish asosiy tayanch bilim bo‘lib, V. M. Masson tomonidan shaharlar tarixini o‘rganishda qo‘llanilgan. Tadqiqotchi arxeologik manbalarni talqin qilishning ikkita — madaniyatshunoslik va sotsiologik darajasini ajratadi.

Arxeologik materiallar mavjud buyumlar shaklida madaniyatni aniqlashni o‘zida aks ettiradi. Ma’lum hududdagi turli manbalarni madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan talqin qilish muhim bo‘lib, ular madaniy majmualardagi ajralib turadigan saralangan jihatlarini, hokimiyat ramzini va ilk sivilizatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bu holat urbanizatsiyalashgan madaniyat belgilaridan biridir.

⁴⁶ (ИТИНА, 1961. с. 89).

Miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda dehqonchilik va chorvachilik Oʻrta Osiyoning dastlabki uch ok-daralaridan sharq tomon, yaʼni hozirgi Oʻzbekiston va Tojikiston hududlariga keng tarqala boshlaydi. Bronza davridagi ilk dehqonchilik aholisining tarixini oʻrganish uchun Oʻzbekistonning turli viloyatlarida bir nechta qadimiy yodgorliklar topib tekshirilgan.

Bronza davrining xoʻjalik sohasida erishilgan eng katta muvaffaqiyatlaridan biri – qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi, shuningdek, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan maxsus xoʻjalik sifatida ajralib chiqishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga taʼsir qilgan. Ishlab chiqarishning oʻsishi natijasida odamlarning iqtisodiy, ijtimoiy tarixi va moddiy madaniyati yangi asosda rivojlangan.

Miloddan avvalgi II ming yillikda dehqonchilik va chorvachilik Oʻrta Osiyo qabilalarining xoʻjalik asosiy sohalari boʻlgan. Bronzadan ishlangan qurollar qadimgi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirganligi tufayli, Oʻrta Osiyo qabilalari asosan chorvachilik bilan shugʻullangan. Chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi – bu dastlabki mehnat taqsimotidir. Bronzaning kashf etilishi bilan mehnat qurollarining turlari ham koʻpaydi.

Bronzadan xanjar, pichoq, nayza, urgʻoch, jezoyna, bigiz, munchoq, tamga, idish va boshqa buyumlar ishlangan. Ammo tosh butun bronza davri davomida ham metall bilan raqobat qilgan, qurollar ishlash manbai sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun bronza kamchil metall boʻlib qolavergan. Toshdan pichoqlar, urgʻochlar, nayza uchlari ham ishlangan. Yorgʻuchoklar avvalgidek kumtoshlardan ishlangan, teri ishlashda ham chakmok gʻosh kirgʻichlardan keng foydalanganlar.

Bronza davrida maxsus hunarmandchilik ishlab chiqarishi yuzaga kelgan. Oʻrta Osiyoning turli viloyatlarida mutaxassis kulollar paydo boʻlgan. Miloddan avvalgi II ming yillikda kulolchilik hunariga charx keng joriy etiladi. Charxning ixtiro qilinishi kulollarning ishini tezlashtirish va sopol idishlarning sifatini yaxshilash zaruriyatidan kelib chiqqan. Kulolchilik charxining ixtiro qilinishi natijasida sopol idishlarning shakllari koʻpaygan.

XULOSA

Bronza davr tarixiy-madaniy jarayonlari asosan moddiy topilmalar yordamida oʻrganilgan. Qadimshunoslarning keyingi yillarda oʻtkazgan tadqiqotlari mamlakatimizda yashagan qabilalarning madaniy munosabatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Turkmeniston, Oʻzbekiston va Tojikiston hududlarida rivojlangan ishlab chiqaruvchi xoʻjaliklar asosida muhim madaniy yutuqlar yuzaga kelgan. Kulolchilik, zargarlik, toʻquvchilik, yigirish va tukimachilik maxsus hunar- kasblarga aylangan.

Ushbu davrda kanal qazib, daryolardan suv chiqarish, kanal va ariq- daralarni doimo tozalab turish, yaʼni sunʼiy sugʻorish inshotlari keng yoʻlga qoʻyilgan. Dehqonchilikda don (arpa, bugʻdoy, javdar) ekish, chorva uchun xashak boʻladigan oʻsimliklar yetishtirish, sabzavot va mevalchilik rivojlantirilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966.
2. Хлопин И.Н. Энеолит Юго-Западного Туркменистана. Санкт-Петербург, 1997.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья III — начала II тыс. до н.э. Москва, 1977.
4. Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966.
5. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии (1945-1965гг) МКГ выпуск 1. Душанбе 1968.
6. Исаков А.И. Саразм. Душанбе, 1991.

